

UDK.632

**OLMA BOG'LARIDAGI SHARQ MEVAXO'RINING QARSHI KIMYOVIY  
VOSITALARI BILAN TAJRIBALAR OLIB BORISH**

**Sh.X.Abdulazizov**

*O'rmon xojaligi ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon filiali ilmiy xodimi*

**Sh.N.Inomjonov**

*O'rmon xojaligi ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon filiali ilmiy xodimi*

**M.Ya.Ismatullayeva**

*O'rmon xojaligi ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon filiali ilmiy xodimi*

**G.Y.Rustamova**

*O'rmon xojaligi ilmiy-tadqiqot instituti  
Andijon filiali ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada intensiv olma bog'larida sharq mevaxo'ri zararkunandasiga qarshi qo'llanilgan kimyoviy vositalarning biologik samaradorligi keltirilgan. Bunga ko'ra sharq mevaxo'riga qarshi KAVANCHA 5 EC ni ishchi eritmalari qo'llanilganda biologik samaradorlik 91.5 % gacha yetgan.*

**Kalit so'zlar:** *Intensiv bog, olma navlari, zararkunanda, sharq mevaxo'ri, qurtlar, o'zak, insektitsid, biologik samaradorlik.*

Dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni yildan-yilga ortib borishi qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish hajmini yanada kengaytirish va yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ta'minlashni talab etadi. Dunyo bo'yicha bugungi kunda 4,9 mln. gektar maydonda olma bog'lari mavjud bo'lib, 83,1 mln. tonnagacha olma ishlab chiqariladi.

Jahonda olma ishlab chiqarish va eksport qilishda Xitoy, AQSh, Turkiya, Polsha, Eron, Chili, Fransiya, Rossiya, Braziliya va Argentina davlatlari yuqori natijalarga erishmoqda. Chunki bu davlatlarda olmani yetishtirish, hosildorlikni oshirish, meva sifatini yaxshilash, zararli organizmlarni tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari va ularga qarshi kurashning ilg'or resurstejamkor usullarini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borishga katta e'tibor qaratilgan.

Sharq meva qurti dunyoda keng tarqalgan hasharot. U Avstraliya, Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropaning o'rta va janubiy qismida, Ukraina, Kavkaz, Rossiyaning janubiy-g'arbiy qismida uchraydi. O'zbekistonda sharq meva qurtini Farg'ona vodiysining barcha hududlarida uchratish mumkin. [2; 229-bet]

Sharq mevaxo'rini vatani Xitoy va Korea davlatlari hisoblanadi. Sharq mevaxo'ri zararkunanda sifatida birinchi marta 1899-yilda Yaponiyada 1913-yilda esa,

Amerikada aniqlangan bo'lib, 1959-yilda Janubiy Avstraliya, keyinroq Braziliyada tarqaldi. 1970-yillarga kelib O'rta yer dengizi atroflariga ham tarqalib ulgurdi. Yevropaning Avstrya, Bolgariya, Vengriya, Gretsiya, Germaniya Italiya, Ispaniya, Polsha, Ruminiya, Slaveniya, Fransiya, Shvetsariya Chexiya, Yugaslaveniya davlatlarida keng tarqalgan [3; 3-bet]

Sharq mevaxo'ri - *Grapholitha molesta* Busck. Tangaqanotlilar yoki Kapalaklar (Lepidoptera) turkumi. Bargo'rarlar (Tortricidae) oilasiga mansub. Kapalagi qanot yozganda 11-15 mm keladi, old qanotlari qoramtir- qo'ng'ir, old chetidan 7 ta juft oqish yaltiroq chiziqlar o'tadi, orqa qanotlari oqroq-och jigarrang. Tuxumining uzunligi 0,5-0,9 mm, kengligi 0,4-0,8 mm keladi, rangi oq, keyinchalik qizara boshlaydi. Qurtlari (9-13 mm) 1-3 yoshida – boshi qora, tanasi oq tusda, keyingi yoshlarida (4-5) qizarib, boshi va ko'krak qalqoni jigarrangga aylanadi. G'umbagi 5,2- 7,6 mm, tusi jigarrang, tanasining oxirida 10-18 ta tikanchasi mavjud. Kapalak chiqishidan oldin g'umbak qorayadi. [2; 229 – bet]

Lab qismi och-qo'ng'ir, qorin qismi, to'q-sarg'ish qo'ng'ir, qorin qismining pasti esa ipaksimon oq rangda oyoqlari qoramtir rangda, sarg'ish oq kalta tuklar bilan qoplangan. Urg'ochi kapalak erkagiga nisbatan kattaroq bo'ladi. [3; 9-bet].

Sharq mevaxo'ri yetuk qurt shaklida meva daraxtlarining o'zida (po'stloq osti, g'ovaklar) hamda yerda hascho'plar ostida zich pilla ichida qishlab chiqadi. Bahorda qurt g'umbaklanadi va undan kapalak uchib chiqadi. Bir necha kundan keyin urg'ochi zot tuxum qo'yishga kirishadi. Har bir zot bir nechtadan 100 tagacha tuxum qo'yishi mumkin. 7-12 kundan keyin (bahorda) tuxumdan qurt chiqib, novdaning o'sish nuqtasiga kemirib kiradi va o'zagidan pastga qarab 6-11 sm li yo'lak ochadi. Qattiq qismga kelgach kemirib tashqariga chiqadi va boshqa novdaga (yoki mevaga) kirishga harakat qiladi. Novdaning zararlangan qismi so'lib quriydi, u "chekanka" qilingandek shoxlab ketadi. SHarq mevaxo'rining qurtlari novdalardan tashqari olma qurti singari daraxt mevalarini ham shikastlashi mumkin. Bunda danakli mevalar ichida (9-14 kun) urug'lik mevalar ichidan ko'ra (16-24 kun) kamroq vaqt bo'ladi. [2; 229 – bet].

Olma va nokning yosh ko'chatlarida lichinka 1-2 sm gacha kirib boradi, zararlangan qismlar qorayadi va quriydi. Zararlangan ko'chat qismlarida chiqarishda va yelimli tomchilarni uchratish mumkin. Bitta lichinka 4-5 ta ko'chatni zararlashi mumkin. Mevalarda esa meva bandlari atrofi va bandlar orqali keyingi mevalarga ham o'tib zarar keltiradi. [3; 13 – betlar].

SHarq mevaxo'ri qurtlari zararlagan mevalarda ikkilamchi kasallik ya'ni qo'ng'ir chirish (*Monilinia* spp) kasalligi ham kelib chiqishi kuzatilgan. Bu esa mevaning butunlay yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'ladi.

Imago (yetuk zot) larni kuzatish uchun feromon tuzoqlardan foydalaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki,feramon tuzoqlar Sharq mevaxo'ri *G. molesta* bilan bir xil vaqtda olxo'ri mevaxo'ri (*G. funebrana*) jalb qiladi. Bu ikki turdagi zararkunandani faqat jinsiy a'zolari orqali ajratish mumkin. Feremonlarga qo'shimcha ferment qo'shish orqali Sharq mevaxo'ri kechki, tungi vaqtda, olxo'ri mevaxo'ri esa yarim tunda va tongi

vaqtda tuzoqqa tushadi. Yosh novdalarni, keyinchalik mevalarni tekshirish orqali Sharq mevaxo'rini o'rganish lozim.[ 4; 20-21-betlar ]

Sharq mevaxo'rini aniqlash va uning tarqalgan hududlarini aniqlash maqsadida ikki marta tekshiruv o'tkaziladi.[3; 4-bet ]

Birinchi tekshiruv: olma daraxtlari gullagandan keyin 10-15 kun o'tgach novdalari 5-10 sm o'sib qolganda o'tkaziladi.

Ikkinchi tekshiruv: zararlangan o'simliklarni mevaga kirishidan oldin yani iyul oyining o'rtalarida .

Ikki marta to'liq tekshiruvdan so'ng o'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tomonidan tanlab tekshiriladi.

Urug'li ekinlar ko'chatlari: olma ,behi .nok kimyoviy vositalar bilan ikki marta dorilanadi.

Birinchisi: avgustni boshida zararkunandaning uchinchi avlodiga qarshi dorilanadi.

Ikkinchisi: avgust oyini oxiri va sentabrni boshlarida to'rtinchi avlodiga qarshi dorilanadi. [3; 6-bet]

Sharq mevaxo'rini birinchi aniqlashda zararlangan meva ko'chatlarining yosh novdalari kesib ko'riladi. Zararlangan ko'chatlarni uch qismida 1-2 barg qurib qolganligi va uch qismi bukilib qolganligi bilan farqlanadi. Ikkinchi marta aniqlashda zararlangan o'simliklarni yerga to'kilgan mevalari terib olinadi va tekshiriladi, ulardagi zararkunandalar lichinkalari ajratilib o'rganiladi.

Sharq mevaxo'rini imagosini burglar ustida, tuxumlarini barglar, yosh novdalar, kurtak va mevalar ustida, lichinkasini yosh kurtaklar, mevalarda, g'umbagini shoxlarni orasida, mevalar ustida yoki ichida, o'simlik qoldiqlari yoki tuproqda uchratish mumkin.

Sharq mevaxo'riga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar samaradorligini oshirish maqsadida profilaktik va agrotexnik tadbirlarni ham olib boorish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Misol uchun meva bog'larini qurigan shoxlardan, zararlangan mevalardan tozalash, shoxlarni siyraklatish, ertangi navlarni ekish, tutqich belbog'lardan foydalanish kabi amallar zararkunandaning ko'payishini oldini oladi. Bundan tashqari biologik usulda yosh qurtlarga qarshi *Bacillus thuringiensis* serovardan foydalanish ham yaxshi natija ko'rsatadi. Trixogrammani qo'llash esa erta bahorda lichinkalarga qarshi yaxshi natija beradi.

Sharq mevaxo'riga qarshi har qanday insektitsidni muaffaqiyatli qo'llashning kaliti – bu feromon tutqichlardan olingan ma'lumotlar mahalliy sharoitga mos haroratga asoslangan natijalari asosida bo'lishi kerak. [4; 21-bet]

Zararkunandaga qarshi qo'llanilgan insektitsidlarning biologik samaradorligi quyidagi formulada hisoblanadi:

2022 yilda Andijon viloyati Andijon tumani Axborot maslahat markazi DUK xo'jaligining intensiv olma bog'ida sharq mevaxo'riga qarshi bir qator

insektitsidlarning biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borildi.

1-jadval

Intensiv olma bog'larida sharq mevaxo' qarshi qo'llanilgan fungitsidlarning biologik samaradorligi.

Xo'jaobod tumani Oltimishboy saxovati fermer xo'jaligidagi 2 gektarlik bog'idagi olib borilgan tajribalar

1-rasm

№	Variant	Dori l/ga	90 tup				Samaradorlik S=%			
			90 ttdagi qurtlar (dona)	tup qurtlar	Pereparatlar angandan so'ng (%)	ida				
1	Nazorat	0	43.5		49.6	53.2	57.1	0	0	0
2	Andoza (Vaybrans em.k.)	0,32	48.6		11.9	15.0	13.2	73.9	76.1	87.4
3	Tajriba Entolucho	0,5 l/ga	51.7		10.7	6.8	4.7	81.9	88.4	95.1

Andoza uchun Vaybrans gold gektariga 0.250 l/ga qo'llanilganda 3.7 va 14 kunlardagi natijalari tegishli ravishda 73.9% , 76.1% va 87.4 % biologik samaradorlik aniqlandi. Entolucho 5 EC preparati 0.450 l/ga sarf meyorida qo'llanilganda Arrivoga nisbatan yuqori biologik samaradorlikni ko'rsatib , 10.7 – kundan keyin 95.1 % biologik samaradorlikka erishildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва, 1985. - 351с.
2. SH.T.Xo'jayev Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan ximoya qilish tizimining asoslari (4-nashr)// Toshkent OOO "Yangi Nashr Nashriyoti" 2019

3. B.Muhammadiyev, F.Zohidov, J.Mamashev SHarq mevaxo'ri – Grapholitha molesta Busck. Karantin hasharoti to'g'risida tavsiyanoma // Toshkent - 2012
4. N.Nishonov, X.Turoпова SHarq mevaxo'ri haqida nima bilasiz?//jurnal SHirinMeva 9-son 2021-yil
- 5.Ходжаев Ш.Т. Инсектицид, акарицид, биологик фаол моддалар ва фунгицидларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар. – Тошкент, 2004. – Б.83–90.
- 6.Кохабидзе Д.М. Итоги испытания фунгицидов // Ж. Защита растений. - Москва, 1973. - №9. – С.31.
7. Murodov S.A. Umumiy entomologiya kursi. – Toshkent: Mehnat, 1986.
8. A. Sh. Xamrayev, A.G. Kojevnikova, B.A. Sulaymonov, Q. X. Xushvaqto'v, Sh. K. Aliev, T. B. Niyazov O'simliklarni himoya qilish Andijon – 2017 "Hayot" nashriyoti.